



O‘ZBEKISTONDA NOTARIF TO‘SIQLARNI QISQARTIRISH VA TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISHNI ISLOH QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Jumaboyev Ixtiyor Solijon o‘g‘li

Bojxona instituti, 4-kurs kursanti

Ilmiy rahbar:

Alimammedov Shuxrat Rixsibayevich

Bojxona instituti, Bojxona tartibga solinishi va bojxona to‘lovlari kafedrasini boshlig‘i

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida tashqi savdoni tartibga solishda muhim o‘rin tutuvchi notarif to‘siqlar va texnik jihatdan tartibga solish tizimini isloh qilish masalalari tahlil qilingan. Xususan, litsenziyalash, kvotalash, sertifikatlashtirish, sanitariya va fitosanitariya nazorati kabi mexanizmlarning amaldagi holati hamda ularning tashqi savdo samaradorligiga ta‘siri yoritilgan. Shuningdek, Jahon savdo tashkiloti talablariga muvofiq ravishda notarif cheklovlarni qisqartirish, “yagona darcha” tizimini joriy etish, raqamlashtirish jarayonlarini kengaytirish va texnik reglamentlarni xalqaro standartlarga moslashtirishning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, investitsiya muhitini yaxshilash va xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: notarif to‘siqlar, tashqi savdo, texnik tartibga solish, litsenziyalash, kvotalash, sertifikatlashtirish, sanitariya va fitosanitariya nazorati, xalqaro standartlar, raqamlashtirish, “yagona darcha”, eksport salohiyati, JST talablari

Kirish: Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a‘zo bo‘lish jarayonida davlatlarning oldida turgan eng muhim vazifalardan biri tashqi savdoda mavjud notarif to‘siqlarni qisqartirish hamda texnik jihatdan tartibga solish tizimini xalqaro standartlar asosida isloh qilishdan iboratdir. Chunki zamonaviy xalqaro savdo amaliyotida tarif cheklovlari bosqichma-bosqich kamayib borayotgan bir paytda, aynan notarif choralar tashqi savdo oqimlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy vositalardan biriga aylanmoqda. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasida ham tashqi savdoni liberallashtirish, investitsion muhitni yaxshilash va JST talablariga moslashish nuqtayi nazaridan mazkur yo‘nalish alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Notarif to‘siqlar deganda eksport va import operatsiyalarini bevosita bojxona tariflari



Learning and Sustainable Innovation

orqali emas, balki ma'muriy, texnik, sanitariya, ekologik, veterinariya, fitosanitariya, kvotalash, litsenziyalash va boshqa cheklovlar orqali tartibga solish tushuniladi. Ushbu vositalar davlat tomonidan milliy xavfsizlikni ta'minlash, aholi salomatligini himoya qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish, strategik resurslar ustidan nazorat o'rnatish va ichki bozorni himoya qilish maqsadida qo'llaniladi. Biroq ularning ortiqcha yoki asossiz qo'llanilishi xalqaro savdoda yashirin proteksionizm shakliga aylanib, erkin savdo tamoyillariga zid bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida notarif tartibga solish vositalari sifatida import va eksport litsenziyalari, kvotalar, majburiy sertifikatlashtirish, sanitariya va fitosanitariya nazorati, veterinariya nazorati, texnik reglamentlar, standartlashtirish, ekologik talablar, strategik mahsulotlar eksportiga cheklovlar va boshqa ruxsat berish tartib-taomillari amal qiladi. Ushbu choralar ayrim hollarda zarur himoya mexanizmi bo'lsa-da, amaliyotda ortiqcha ma'muriy yuklama va byurokratik to'siqlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Ayniqsa, litsenziyalash va ruxsat berish tizimidagi murakkabliklar tadbirkorlik subyektlari uchun eng katta muammolardan biri hisoblanadi. Ko'plab hollarda eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish uchun bir nechta davlat organlaridan ruxsat olish talab etiladi, bu esa vaqt va moliyaviy xarajatlarning oshishiga olib keladi. Hujjatlarni ko'rib chiqish muddatlarining uzoqligi, ayrim hollarda turli idoralar o'rtasidagi vakolatlarning kesishishi va inson omilining yuqoriligi tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini pasaytiradi.

JST qoidalariga ko'ra notarif choralar faqat zarurat mavjud bo'lgan hollarda, aniq huquqiy asosga ega, shaffof va diskriminatsiyasiz tarzda qo'llanishi lozim. Ayniqsa, Import litsenziyalari to'g'risidagi bitim, TBT (Technical Barriers to Trade) bitimi hamda SPS (Sanitary and Phytosanitary Measures) bitimi davlatlardan aynan shu tamoyillarga rioya qilishni talab etadi. Shu sababli O'zbekistonda mavjud notarif cheklovlarni qayta ko'rib chiqish va ularni xalqaro standartlarga moslashtirish zarur.

Notarif to'siqlarni qisqartirishning birinchi yo'nalishi — ortiqcha litsenziya va ruxsat berish tartiblarini bekor qilishdir. Faqat strategik, xavfli yoki ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar bo'yicha ruxsat berish tizimini saqlab qolish, boshqa sohalarda esa deklarativ yoki xabardor qilish tartibiga o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu savdo jarayonlarini tezlashtirish va tadbirkorlik subyektlari uchun qulaylik yaratadi.

Ikkinchi yo'nalish — "Yagona darcha" tamoyilini to'liq joriy etishdir. Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari barcha zarur hujjatlarni yagona elektron platforma orqali rasmiylashtirishi savdo operatsiyalarini sezilarli darajada soddalashtiradi. Bu tizim inson omilini kamaytirish, korrupsion xavflarni pasaytirish, ma'lumot almashuvini



tezlashtirish va davlat xizmatlari sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchi yoʻnalish — bojxona va nazorat organlari faoliyatini raqamlashtirishdir. Elektron deklaratsiya, masofaviy nazorat, avtomatlashtirilgan xavfni boshqarish tizimi, elektron sertifikatlashtirish va elektron litsenziyalash tizimlarini keng joriy etish savdo tartib-taomillarini xalqaro standartlarga yaqinlashtiradi. Raqamlashtirish savdo xarajatlarini kamaytiradi va bojxona rasmiylashtiruvini tezlashtiradi.

Texnik jihatdan tartibga solishni isloh qilish ham JSTga moslashuvning eng muhim yoʻnalishlaridan biridir. Texnik jihatdan tartibga solish mahsulot sifati, xavfsizligi, ekologik talablarga muvofiqligi va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan davlat mexanizmlarini oʻz ichiga oladi. Bu jarayon texnik reglamentlar, standartlashtirish, metrologiya, akkreditatsiya va sertifikatlashtirish tizimi orqali amalga oshiriladi.

JSTning TBT bitimiga muvofiq texnik reglamentlar savdoga ortiqcha toʻsiq yaratmasligi, xalqaro standartlarga asoslangan boʻlishi va mahalliy hamda xorijiy ishlab chiqaruvchilarga nisbatan teng qoʻllanishi lozim. Oʻzbekistonda esa ayrim hollarda milliy standartlarning xalqaro ISO, IEC, Codex Alimentarius va boshqa standartlardan farq qilishi eksport-import operatsiyalariga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Masalan, ayrim mahsulotlar boʻyicha takroriy sertifikatlashtirish talab etilishi xorijiy ishlab chiqaruvchilar uchun qoʻshimcha xarajatlarni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, xalqaro sertifikatlarni tan olish mexanizmlarining cheklanganligi eksport qiluvchi mahalliy korxonalar uchun ham tashqi bozorlarga chiqishda muammolar tugʻdiradi.

Texnik jihatdan tartibga solishni isloh qilishning birinchi yoʻnalishi — texnik reglamentlarni xalqaro standartlarga moslashtirishdir. ISO, IEC, Codex Alimentarius, OIE va IPPC standartlari asosida milliy reglamentlarni qayta koʻrib chiqish zarur. Bu mahsulotlarning xalqaro bozorlarda tan olinishi va eksport salohiyatining oshishiga xizmat qiladi.

Ikkinchi yoʻnalish — majburiy sertifikatlashtirish tizimini optimallashtirishdir. Sertifikatlash faqat inson salomatligi, xavfsizlik va ekologik barqarorlik nuqtayi nazaridan muhim mahsulotlarga nisbatan qoʻllanishi kerak. Boshqa hollarda ixtiyoriy sertifikatlashtirish yoki oʻzaro tan olish mexanizmlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchi yoʻnalish — laboratoriya va akkreditatsiya tizimini modernizatsiya qilishdir. Zamonaviy laboratoriyalar, xalqaro akkreditatsiyaga ega sinov markazlari va malakali mutaxassislar mavjud boʻlmasa, texnik tartibga solish samarali ishlamaydi. Shu bois laboratoriya bazasini mustahkamlash va xalqaro akkreditatsiya tizimiga integratsiyalashuv zarur.



To'rtinchi yo'nalish — sanitariya va fitosanitariya nazoratini takomillashtirishdir. Oziq-ovqat mahsulotlari, veterinariya nazorati va o'simliklar karantini tizimi ilmiy asoslangan bo'lishi, xalqaro standartlarga mos ishlashi va eksport-import operatsiyalariga ortiqcha to'siq yaratmasligi kerak. Bu borada elektron fitosanitariya sertifikatlari, laboratoriya tizimini avtomatlashtirish va xalqaro tan olish mexanizmlarini kengaytirish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, texnik jihatdan tartibga solish tizimida davlat organlari o'rtasidagi vakolatlarni aniq belgilash, takrorlanuvchi nazoratlarni qisqartirish va tadbirkorlik subyektlari bilan ochiq muloqotni kuchaytirish zarur. Ko'plab hollarda bir xil mahsulot bir nechta organ tomonidan tekshirilishi ortiqcha ma'muriy yuklama yaratadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, notarif to'siqlarni qisqartirish va texnik tartibga solishni isloh qilish nafaqat JSTga a'zolikni tezlashtiradi, balki ichki iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi. Bu eksport hajmining ortishi, logistika xarajatlarining kamayishi, investitsion muhitning yaxshilanishi va tadbirkorlik faolligining kuchayishiga olib keladi.

Notarif usullar - tovar ayirboshlashga ta'sir kilish dastaklarini, ya'ni olib kiriladigan yoki olib chiqiladigan maxsulot hajmi va nomenklaturasini cheklashni bildiradi. Notarif usullar miqdoriy, moliyaviy, yashirin va noiqtisodiy usullarga ajratiladi. Ular ko'prok rivojlanayotgan va hukumat tomonidan proteksionistik iqtisodiy siyosatni talab qiluvchi, bozor tuzilmalari shakllanayotgan o'tish davri iqtisodiyotli mamlakatlarga xosdir.

Ko'pgina davlatlar bo'yicha statistik axborotlar tahliliga ko'ra tashqi savdoni davlat tomonidan boshqarish tarifli va notarif usullarning kombinatsiyasi yordamida amalga oshiriladi. Tarif usullarning mavqei keyingi paytda pasayib bormoqda, bu JST tomonidan a'zo mamlakatlar oldiga qo'yilgan strategik vazifa, ya'ni ular orasidagi o'zaro tovar ayirboshlashda tarifli cheklashlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish vazifasi bilan bog'liq.

Notarif usullar, bu esa turli xil sertifikatlash, standartlash va sanitariya talablarini o'z ichiga oladi, tarif usullarining pasayishi bilan yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu usullar savdo siyosatida yanada aniq va oshkora tartib-taomillarni talab qiladi, chunki ular mahsulot xavfsizligi, iste'molchilar huquqlari va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi muhim masalalarga ta'sir qiladi.

Bu o'zgarishlar savdo siyosatining global trendlariga javoban amalga oshirilmoqda. JSTning bu boradagi siyosati savdo to'siqlarini kamaytirish va savdo erkinligini oshirishga qaratilgan bo'lib, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish va global iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi.



Tashqi savdo faoliyatini tartibga solishning notarif usullarining ustunligi sabablari quyidagilardan iboratdir:

- birinchidan, tartibga solishning notarif usullari, qoida tariqasida, hech qanday xalqaro majburiyatlar bilan bog‘lanmaydi, shuning uchun ularni qo‘llash ko‘lami va uslubi to‘liq mamlakat milliy qonunchiligi bilan belgilanadi;
- ikkinchidan, ular jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan o‘ziga xos vaziyatni hisobga olish va ma‘lum muddat ichida mahalliy bozorni himoya qilish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni qo‘llash imkonini beradi, bu esa tashqi iqtisodiy siyosatda ko‘zlangan natijaga erishishda qulayroqdir;
- uchinchidan, notarif usullardan foydalanish tashqi savdo subyektlari uchun qo‘shimcha soliq yukini keltirib chiqarmaydi. Biroq, ular tashqi savdo ishtirokchilari uchun boshqa xarajatlar bilan bog‘liq (masalan, litsenziya olish uchun yig‘im to‘lash), kabi iste‘molchiga taklif qilinadigan tovarlarning yakuniy narxiga ta‘sir qiladi.

Miqdoriy cheklovlar savdo siyosatining asosiy notarif usuli bo‘lib, bu usullar kvotalar, import kvotalari yoki eksport cheklovlari kabi vositalar orqali amalga oshiriladi. Masalan, ma‘lum bir mahsulotning mamlakatga kirishini cheklash yoki maxsus litsenziyalash talab qilinishi mumkin, bu esa o‘z navbatida mahsulotning bozorga kirib kelish hajmini nazorat qiladi.

Notarif cheklovlarining eng keng tarqalgan usullaridan biri kvotalar hisoblanadi. Kvotalar, davlat tomonidan belgilangan ma‘lum bir davr uchun ma‘lum bir hajm yoki miqdordagi mahsulotlarni import qilish yoki eksport qilishni cheklaydi. Bu tizim orqali mamlakatlar o‘z iqtisodiyotlarini himoya qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash va ekologik yoki boshqa maqsadlarga erishish uchun tashqi savdo oqimlarini boshqaradi.

Kvotalarning amalga oshirilishi:

1. Litsenziyalash: Davlat kvotalarni amalga oshirish uchun import yoki eksport qilinadigan mahsulotlar uchun maxsus litsenziyalar beradi. Bu litsenziyalar mahsulotlarning davlat tomonidan ruxsat etilgan miqdorida savdo qilish huquqini beradi.
2. Savdoni Cheklash: Kvotalarga rioya qilinmasa, litsenziyasiz savdo qilish taqiqlanadi. Bu, kvotadan tashqari har qanday hajmdagi mahsulotlarni olib kirish yoki chiqarishga qarshi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Kvotalar Qo‘llanilishining Oqibatlari:

- Iqtisodiyotni Himoya Qilish: Kvotalar mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xalqaro raqobatdan himoya qilish maqsadida ishlatiladi, bu esa ish o‘rinlarini saqlab qolish va sanoatni rivojlantirishga yordam beradi.



Learning and Sustainable Innovation

- Narxlarni Nazorat Qilish: Kvotalar mahsulotlarning bozordagi taklifini cheklash orqali narxlarni barqarorlashtirishga yordam beradi, bu esa iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar uchun prognoz qilishni osonlashtiradi.

- Resurslarni Boshqarish: Ayrim hollarda, kvotalar tabiiy resurslarni boshqarish va ekologik barqarorlikni saqlash uchun qo'llaniladi.

Haqiqatan ham, kvotalar kabi notarif cheklovlar savdo erkinligiga to'sqinlik qilishi mumkin, bu esa xalqaro savdo munosabatlarida ba'zi tarangliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Kvotalar kabi cheklovlar mamlakatlar o'rtasidagi savdo sherikliklariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki ular o'zaro tovar ayirboshlash erkinligini cheklaydi va boshqa davlatlar bilan iqtisodiy munosabatlarni murakkablashtiradi. Shu sababli, kvotalarni va boshqa notarif cheklovlarni qo'llashda quyidagi masalalarga e'tibor berish juda muhim:

1. Xalqaro Kelishuvlarga Rioya Qilish: Kvotalar va boshqa cheklovlar qo'llanilganda, mamlakatlar o'rtasidagi xalqaro bitimlarga va kelishuvlarga rioya qilinishi kerak. Bu, savdo qoidalari va me'yorlarining aniq va shaffofligini ta'minlaydi va xalqaro savdo tizimida ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

2. Adolatli Raqobatni Ta'minlash: Kvotalar qo'llanilganda, adolatli raqobat muhitini saqlab qolish uchun choralar ko'rish zarur. Bu, mahalliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilar o'rtasida teng sharoitlar yaratishga yordam beradi va mahsulotlar bozorida tanlov imkoniyatlarini cheklamaydi.

3. Iqtisodiy O'sish va Integratsiyani Rag'batlantirish: Kvotalar va boshqa cheklovlarni qo'llashda iqtisodiy o'sish va global iqtisodiy integratsiyani rag'batlantirish uchun siyosatlar ishlab chiqilishi kerak. Bu, savdo to'siqlarini minimallashtirish va savdo aloqalarini yaxshilash orqali erishiladi.

4. Muzokaralar va Kelishuvlarni Chuqurlashtirish: Xalqaro savdo siyosatida kvotalar va boshqa cheklovlar bilan bog'liq masalalarni hal qilish uchun ko'p tomonlama muzokaralar va kelishuvlarni chuqurlashtirish muhimdir. Bu jarayon, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy manfaatlarni muvozanatlash va o'zaro manfaatli yechimlarni topish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida import kvotalari qo'llanilmaydi. Biroq ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha Monreal protokoli ozon qatlamini yemiruvchi moddalar va ularni o'z ichiga olgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni taqiqlaydi va protokolni imzolagan davlatlar bunday tovarlarni o'z mamlakatlariga olib kirishni qat'iyan man qilgan. Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha 1987-yilda qabul qilingan Monreal protokoliga asosan respublika O'zbekiston Respublikasiga 2005-2030-yillarga mo'ljallangan ozon qatlamini yemiruvchi moddalarni olib kirish uchun



kvotalar tasdiqlagan. Hozirda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasiga import va O‘zbekiston Respublikasidan eksportni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 17-son qaroriga asosan ozonni yemiruvchi moddalar va ularni o‘z ichiga olgan mahsulotlar bo‘yicha kvotalar tasdiqlangan.¹

Shu bilan birga, “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq, ayrim turdagi tovarlarning eksporti va importiga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan miqdoriy cheklovlar (kvota) belgilanishi mumkin.²

Kvotalarni taqsimlash, qoida tariqasida, tanlov yoki kim oshdi savdosi asosida amalga oshiriladi.

Litsenziyalash davlat tomonidan tartibga solishning mustaqil vositasi bo‘lishi mumkin; bunda litsenziya bir martalik, umumiy, global yoki avtomatik litsenziya shaklida beriladi. Import litsenziyalarini tarqatishning asosiy usullari raqobatdosh auktsion va aniq imtiyozlar tizimi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda savdo siyosatining miqdoriy usullari bilan bir qatorda yashirin proteksionizmning turli usullari muhim rol o‘ynaydi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, mamlakatlar bir tomonlama ravishda import yoki eksportni cheklaydigan yuzlab yashirin usullar mavjud. Eng keng tarqalganlari:

- *texnik to‘siqlar* - milliy standartlarga muvofiqlik, import qilinadigan mahsulotlar uchun sifat sertifikatlarini olish, tovarlarni o‘ziga xos qadoqlash va markalash uchun talablar va boshqalar;
- *ichki soliqlar va yig‘imlar* – import qilinadigan tovarlarning ichki narxini oshirishga va shu orqali ularning ichki bozorda raqobatbardoshligini pasaytirishga qaratilgan savdo siyosatining yashirin usullari;
- *davlat xaridlari siyosati* - davlat idoralari va korxonalaridan ayrim tovarlarni faqat milliy firmalardan sotib olishni talab qilish, garchi bu tovarlar import qilinganidan qimmatroq bo‘lishi mumkin bo‘lsa ham;
- *import qilinadigan tovar va xizmatlarni sertifikatlashtirish* - tovarlarga oid qonun hujjatlarida belgilangan texnik, farmakologik, sanitariya, veterinariya va ekologik standartlar va talablarga muvofiqligi.

Prezidentimizning 2024-yil 27-fevraldagi 41-sonli “Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar

¹ <https://lex.uz/docs/-3500049>

² <https://lex.uz/docs/-67345>



to'g'risida"gi farmonida asosida quyidagilar kiritildi:³

✓ 2024-yil 1-oktabrdan e'tiboran ishlab chiqarilgan va chetdan olib kiriladigan xavflilik darajasi yuqori bo'lgan mahsulotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi joriy etish. Bunda, respublika hududiga olib kirilayotgan mahsulotlar davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma bojxona hududiga kelishidan avval "Yagona darcha" bojxona axborot tizimiga va Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimiga import qiluvchi tomonidan joylashtirilishi shart.

✓ 2024-yil 1-sentabrdan boshlab Inspeksiyaning davlat inspektorlariga tezkor nazorat tadbirlarini Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil bilan oldindan kelishmasdan, o'tkazilgan tekshiruv haqida tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimida ro'yxatdan o'tkazish orqali tekshiruv boshlangan paytdan boshlab 24 soat ichida vakilni majburiy ravishda xabardor qilgan holda amalga oshirish vakolati taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-martdagi 153-sonli "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida qarori asosida quyidagilar amalga oshirish:

✓ yangi texnik reglament ishlab chiqilgan yoki o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, texnik reglamentlarni ishlab chiquvchilar Jahon savdo tashkilotiga a'zo davlatlar va manfaatdor tomonlarga Axborot markazi orqali tegishli xabarnomalarni taqdim qilishi nazarda tutilganligi ma'lumot uchun qabul qilish.

✓ JSTning Savdodagi texnik to'siqlar (keyingi o'rinlarda — STT) to'g'risidagi bitimi doirasida ma'lumot almashish va STT masalalari bo'yicha xabar berish funksiyalarini bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi texnik jihatdan tartibga solish agentligining O'zbekiston Standartlar instituti tuzilmasida xodimlarning belgilangan umumiy soni doirasida 4 ta shtat birligi ajratilgan holda, Savdodagi texnik to'siqlar bo'yicha axborot markazi (keyingi o'rinlarda — Axborot markazi) tashkil etish.

✓ Axborot markaziga respublikada texnik reglamentlar va muvofiqlikni baholash tartib-qoidalarini ishlab chiqish, qabul qilish va amaliyotda qo'llash bo'yicha JST kotibiyati, JSTga a'zo davlatlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan axborot almashish bo'yicha hamkorlik qilish vazifalari yuklash.⁴

Eksport subsidiyalari, hukumat tomonidan eksportchilarga beriladigan imtiyozlar va moliyaviy yordamlar sifatida, eksportni rag'batlantirish maqsadida qo'llaniladi. Bu

³ <https://lex.uz/uz/docs/-6821840>

⁴ <https://lex.uz/uz/docs/-6847561>



Learning and Sustainable Innovation

subsidiyalar eksportchilarga o'z mahsulotlarini xalqaro bozorda ichki narxlarga qaraganda arzonroq taklif etish imkonini beradi. Biroq, bu amaliyot eksport hajmining oshishi sababli ichki bozordagi mahsulotlar sonining kamayishiga va narxlarning oshishiga olib kelishi mumkin, bu esa o'z navbatida talabning pasayishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, subsidiyalar davlat byudjetiga qo'shimcha xarajatlar sifatida ta'sir ko'rsatadi, bu esa ko'pincha mamlakat uchun keladigan zararlarni foydadan oshirib yuborishi mumkin.

Tashqi savdoni cheklashning yanada jiddiy bir shakli iqtisodiy sanksiyalardir. Masalan, savdo embargosi bu har qanday tovarlarni bir mamlakatga kirishini yoki undan chiqishini to'liq taqiqlashdir. Embargo ko'pincha siyosiy sabablarga ko'ra qo'yiladi va bu chora-tadbirlar ba'zan tashabbuskor mamlakatning iqtisodiy manfaatlariga ham zarar keltirishi mumkin. Bu qat'iy siyosat choralari, xususan, xalqaro ziddiyatlar yoki xavfsizlik masalalari fonida qo'llaniladi.

JST global savdoda tarifsiz to'siqlardan foydalanishni imkon qadar cheklashga intiladi. GATTga muvofiq import qilinadigan tovarlarga soliq solish milliy rejim shartlariga muvofiq amalga oshirilishi kerak. San'atga muvofiq. XIII GATT, bojxona rasmiylashtiruv qoidalari tashqi savdoga to'sqinlik qilmasligi kerak: "Ahdlashuvchi tomonlarning hech biri boshqa Ahdlashuvchi Tomon hududidan biron bir tovarni olib kirishga yoki hududga mo'ljallangan har qanday tovarlarni olib chiqishga hech qanday taqiq yoki cheklovlarni qo'llamaydi. har qanday boshqa Ahdlashuvchi Tomonning, agar bunday tovarlarni barcha uchinchi davlatlardan olib kirish yoki bunday tovarlarni barcha uchinchi davlatlarga olib chiqish xuddi shunday tarzda taqiqlanmagan yoki cheklanmagan bo'lsa.

Tashqi savdoni tartibga solishning notarif usullari bo'yicha JSTda bir qator alohida kelishuvlar mavjud, masalan:

Sanitariya va fitosanitariya standartlarini qo'llash to'g'risidagi shartnoma. Ushbu shartnomaga muvofiq, sanitariya va fitosanitariya choralari inson va hayvonlar hayotini muhofaza qilish yoki o'simliklarni turli xil qo'shimchalar, toksinlar yoki oziq-ovqat mahsulotlarida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan kasalliklar bilan bog'liq xavflardan himoya qilish, shuningdek, mamlakatni himoya qilish uchun qo'llaniladigan chora-tadbirlardir. uning hududiga kirib kelganda va hasharotlar zararkunandalarining tarqalishida. Bitim a'zolariga fanga asoslangan sanitariya va fitosanitariya choralari joriy etish imkonini beradi, biroq bunday choralar import qilinadigan tovarlarni kamsitish vositasi bo'lib xizmat qilmasligi kerak. Sanitariya va fitosanitariya choralari proteksionistik maqsadlarda qo'llanilmasligi kerak. Yangi sanitariya va fitosanitariya choralari ishlab chiqishda Bitim a'zolariga amaldagi



xalqaro standartlar, yo'riqnomalar va tavsiyalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Savdodagi texnik to'siqlar to'g'risidagi bitim. Uning maqsadi texnik standartlar va qoidalar, shuningdek muvofqlikni baholash tartib-qoidalari savdoda qo'shimcha to'siqlar yaratmasligini ta'minlashdir. Bitim a'zo davlatlar inson salomatligi va xavfsizligini yoki atrof-muhitni muhofaza qilish uchun bunday choralarni kiritish huquqiga ega ekanligini tan oladi. Bitim a'zolari xalqaro standartlardan foydalanishga hamda texnik reglamentlar, standartlar va muvofqlikni baholash tartib-qoidalarini uyg'unlashtirish va o'zaro tan olishga undaydi. Savdodagi texnik to'siqlar to'g'risidagi bitim qoidalariga muvofiq, har bir JSTga a'zo davlat har bir mamlakatda mavjud bo'lgan texnik reglamentlar, standartlar va muvofqlikni baholash tartib-qoidalari to'g'risidagi ma'lumotlarga kirishni osonlashtirish uchun maxsus axborot idoralarini tashkil etishi kerak.

Savdo bilan bog'liq investitsiya choralari to'g'risidagi bitim. U ba'zi milliy investitsiya siyosatlari savdoni buzish yoki savdoni buzish ta'siriga ega bo'lishi mumkinligini tan oladi. Bitimga muvofiq, JSTga a'zo davlatlar GATT 1994da mustahkamlangan milliy rejim tamoyiliga yoki savdodagi miqdoriy cheklovlarni bartaraf etish majburiyatiga zid keladigan choralarni qo'llamaslik majburiyatini oladilar. Bitimga ilovada GATT 1994 qoidalariga zid bo'lgan investitsiya siyosati chora-tadbirlarining taxminiy ro'yxati keltirilgan (masalan, ma'lum miqdorda milliy ishlab chiqarilgan tovarlarni sotib olish talabi).

Importni litsenziyalash tartibi to'g'risidagi shartnoma. Ushbu Bitim importni litsenziyalash tartibi va shakllarini belgilaydi, ularga muvofiq qoidalar va tartiblar, arizalarni topshirish, shu jumladan shaxslar, firmalar va tashkilotlar uchun bunday arizalarni ular murojaat qilishlari kerak bo'lgan ma'muriy organga topshirish shartlariga oid barcha ma'lumotlar, shuningdek, litsenziya talab qilinadigan tovarlar ro'yxati import litsenziyalash qo'mitasiga ma'lum qilingan manbalarda hukumatlar va savdogarlarga ular bilan tanishish imkonini beradigan tarzda e'lon qilinishi kerak. Iloji bo'lsa, bunday nashr talabning kuchga kirishidan 21 kun oldin, lekin har qanday holatda ham kuchga kirgan kundan kechiktirmay amalga oshirilishi kerak.

Subsidiyalar va kompensatsiya choralari to'g'risidagi shartnoma. Subsidiyalar va kompensatsiya to'lovlari to'g'risidagi shartnoma "subsidiya" atamasini belgilaydi va uning qoidalari bilan faqat aniq subsidiyalar qamrab olinishini ta'kidlaydi. Shartnoma subsidiyalarni uch toifaga ajratadi: (1) taqiqlangan; (2) ruxsat etilgan, lekin kompensatsiya choralari qo'llashga ruxsat beruvchi; va (3) kompensatsiya choralari qo'llashga ruxsat beriladimi yoki yo'qmi. Shartnoma shuningdek, kompensatsiya choralari qo'llashni tartibga soluvchi qoidalarni o'z ichiga oladi, ya'ni subsidiyaning



salbiy oqibatlarini qoplash uchun tegishli tekshiruvlar natijalariga ko'ra import qiluvchi mamlakatda undiriladigan qo'shimcha bojxona to'lovlari.

Shartnomada, demping narxlarida tovarlarni eksport qilish faktini aniqlash bo'yicha aniq va tushunarli qoidalar, sohaga yetkazilgan zararni baholashda inobatga olinadigan mezonlar, hamda dempingga qarshi tekshiruvlar o'tkaziladigan tartiblar haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Shartnoma, shuningdek, Jahon Savdo Tashkiloti (JST) nizolarni hal qilish mexanizmining antidemping tekshiruvlari bilan bog'liq nizolarni hal etishdagi rolini aniq belgilab beradi.

Himoya choralari to'g'risidagi bitim esa, JSTga a'zo mamlakatlarga importni cheklash imkoniyatini beradi, agar ular ma'lum shartlarga rioya qilsalar va bu cheklovlar kamsitmasdan amalga oshirilsa. Ushbu Shartnoma, ixtiyoriy eksport cheklovlari yoki bozorni taqsimlash kelishuvlari kabi "kulrang zona choralari"ni taqiqlaydi va himoya choralari qo'llash uchun zarur bo'lgan tergov qoidalari va tartiblarini batafsil bayon qiladi. Shu tariqa, Shartnoma, a'zo mamlakatlarga importga qarshi himoya choralari qo'llashda adolatli va o'zaro manfaatli yondashuvlarni ta'minlashga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi ushbu shartnomalar talablarini deyarli to'liq qamrab olgan. Biroq, tashqi savdo siyosatini tartibga solishda qo'llaniladigan subsidiyalar, himoya choralari va boshqa notarif choralarni asoslash va ularning tashqi savdoga salbiy ta'sir ko'rsatmasligini ta'minlash masalasi muammoli bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, notarif to'siqlarni qisqartirish va texnik jihatdan tartibga solishni isloh qilish O'zbekistonning JSTga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi uchun muhim shart hisoblanadi. Litsenziyalash va ruxsat berish tizimini soddalashtirish, "Yagona darcha" mexanizmini to'liq joriy etish, raqamlashtirishni kengaytirish, xalqaro standartlarga mos texnik reglamentlarni shakllantirish va sanitariya-fitosanitariya nazoratini modernizatsiya qilish tashqi savdo tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlash va barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Trade Organization. *World Trade Statistical Review 2023*. Geneva, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Tashqi savdo ko'rsatkichlari*. 2024.



3. Krugman P., Obstfeld M. *International Economics: Theory and Policy*. Pearson, 2018.
4. World Trade Organization. *Understanding the WTO*. Geneva, 2022.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi hisobotlari, 2022–2024.
6. World Bank. *Doing Business & Trade Facilitation Indicators*. 2023.